

**MAMLAKATIMIZDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH
STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISHDA AXBOROT- KOMMUNIKATSIYA
TEXNOLOGIYALARINI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Nasrulloev Hikmatullo Xabibulloevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari, raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning asoslari, mamlakat iqtisodiyotida raqamlashtirishning afzalliklari, sohadagi mavjud muammolar va bu muammolarni hal etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy iqtisodiyot, axborot texnologiyalari iqtisodiyoti, raqamli iqtisodiyot, internet va telekommunikatsiya tarmoqlari, axborotlashgan jamiyat, elektron hukumat, simsiz aloqa tarmoqlari, mobil qurilmalar.

Kirish:

Bugungi kunning yangi zamonaviy iqtisodiyoti deganda, raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari iqtisodiyoti degan tushunchalarni anglashimiz mumkin. Jahon xo‘jaligi tizimida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin bo‘lib qoldi, raqamli texnologiyalar bozorining yangi imkoniyotlarini yaratish orqali mehnat, ta‘lim, menejment va insonlarning turmush tarzini yengillashtirishga sabab bo‘ldi.

Simsiz aloqa tarmoqlari, mobil qurilmalar va texnika qulayliklarini o‘z ichiga olgan yangi yechimlarni qamrab olgan axborot infratuzilmasining paydo bo‘lishi axborot-texnologiyalarining ijtimoiy- siyosiy va iqtisodiy hayotning barcha sohalarida keskin integratsiyalashuviga zamin yaratmoqda, bu xalqaro iqtisodiyotning yangi paradigmasi – raqamli iqtisodiyot tushunchasini yuzaga keltirmoqda. Raqamli iqtisodiyotni yaratish va rivojlantirish strategiyasi AQSh, Kanada, Yaponiya, Germaniya va boshqa qator rivojlangan mamlakatlarning keyingi o‘n yil ichida juda muhim maqsadlaridan hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot atamasi va tushunchasi ko‘plab ommaviy nashrlar, turli saytlar va mamlakatlarning milliy rivojlanish dasturlarida aks etmoqda va qo‘llanilmoqda. Raqamli iqtisodiyot atamasi juda yangi va noaniq ta‘riflarga ega bo‘lgan tushunchadir. Uni olimlar va ilmiy izlanuvchilar turli xil ta‘riflar asosida yoritmoqda, ammo ushbu ta‘riflarni umumlashtirish asosida bitta to‘xtamga kelish mumkin. Raqamli iqtisodiyot axborot texnologiyalari iqtisodiyotidir. Agar biz raqamli iqtisodiyotning nazariy ildizlariga e‘tibor beradigan bo‘lsak, bu tushuncha 1920-yillarda paydo bo‘lgan.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar milliy xo‘jaliklar barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashning muhim omili hisoblanadi. Bu texnologiyalar, eng avvalo, boshqaruv samaradorligini oshiradi, aholining ijtimoiy shart-sharoitlarini yaxshilaydi. Ayni vaqtda raqamli texnologiyalar ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish asosida ularning tannarxini pasaytiradi. Mazkur texnologiyalarning yana bir asosiy afzalliklaridan biri korrupsiyaga barham berishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishidir.

Jahon bankining “Raqamli dividendlar” nomli tadqiqoti xulosalariga ko‘ra, internet tezligining 10 foizga o‘shishi mamlakat YaIM o‘shishiga olib keladi. Rivojlangan davlatlarda bu ko‘rsatkich 1,21 foizni tashkil etsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda 1,38 foizga teng. Demak, internet tezligi 2 barobar oshadigan bo‘lsa, YaIM hajmi 13-14 foiz ortishiga erishish mumkin.

Jahondagi globallashuv sharoitida tashqi migratsiya, xalqaro savdo va kapitallar harakati, turizm, xorijiy investitsiyalar, IT rivojlanishi mamlakatlarning iqtisodiy o‘shish sur‘atlariga ta‘sir etadi. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ochiqlik, xalqaro iqtisodiy-siyosiy aloqalarning rivojlanishi yurtimizda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash imkoniyatlarini yuzaga keltirdi. Bunga mamlakatimiz tashqi savdo hajmining o‘shishini misol qilib keltirish mumkin. “Elektron hukumat”, “Elektron boshqaruv”, “Telekommunikatsiya”, “Internet”, “Veb-sayt” kabi ko‘plab iboralar hayotimizning ajralmas bo‘lagiga aylandi. IT kundalik hayotimizning barcha sohasini qamrab olmoqda.

Hozirgi paytda jahondagi bir qancha rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Xitoy, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Rossiya va h.k.), jahon iqtisodiyotida ro‘y berishi boshlangan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda, iqtisodiyotning ko‘pchilik tarmoqlarini raqamlashtirish bo‘yicha jadal harakatni boshlamoqda. Lekin bu ma‘lumotlarni nazarda tutgan holda shuni qayd etishga majburmizki, bironta, jumladan, yetakchi mamlakatlarda ham raqamli iqtisodiyot o‘zi nima ekanligi va u kelajakda qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida to‘laqonli falsafiy tushunchalar mavjud emas. Ko‘rinib turibdiki, raqamli iqtisodiyot deganda, ko‘plab mamlakatlar iqtisodiy munosabatlar va boshqaruvning yangi shakllarini emas, balki iste‘molchilar bilan kommunikatsiya qilish va to‘lovlarning yangi elektron raqamli shakllarini tushunadi, xolos. Ko‘pchilik mamlakatlar raqamli iqtisodiyotni ongli ravishda tashkil etmaydi, balki mavjud iqtisodiy munosabatlarni raqamlashtirish jarayoni bilan shug‘ullanadi, xolos.

Biz ham mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning AQSh va Xitoy mamlakatlarida sinovdan o‘tgan xuddi shunday strategiyasini tanlaganimiz maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Raqamli iqtisodiyotda zamonaviy ilmiy yondashuvlar va innovatsiyalar muhim hamda ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunda ilmiy sig‘imkorlik yuqori bo‘lgan tarmoqlar ravnaq topadi. Raqamli iqtisodiyot rivojlangan davlatlarda YaIM hajmi ham, YaIMning aholi son boshiga ulushi ham yuqoridir. Shu jihatdan davlatimiz rahbarining bu masalaga katta e‘tibor qaratishi bir maqsadni ko‘zlaydi, u ham bo‘lsa, birinchidan, aholining

yashash darajasini yuksaltirish, ikkinchidan, aholining real daromadlarini oshirish va xalqimizni rozi qilishdir.

Ekspertlarning fikricha, 2020-yildan boshlab yirik banklarning qariyb 30 foizidan ortig‘i o‘z ish faoliyatida blokcheyn texnologiyasidan foydalanishni boshlab yubordi. Bunga blokcheyn texnologiyasining nisbatan endigina yaratilganiga qaramasdan, uning mavjud biznes jarayonlaridagi inqilobiy o‘zgarishlarni qamrab olgani moliya bozorlari ishtirokchilari orasida ulkan qiziqish uyg‘otganini sabab qilib ko‘rsatish mumkin.

Xulosa va takliflar

Quyidagi xulosa, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat – korrupsiya balosini yo‘qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin. Shuning uchun, eng avvalo, millatning AT haqidagi bilimlarini mustahkamlash va raqamli iqtisodiyot strategiyasini ishlab chiqargan holda mamlakat iqtisodiyotini yana rivojlantirish mumkin.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

1. Porsaev G‘.M., Safarov B.Sh., Usmanova D.Q. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. – T., 2020-yil. 19-b.
2. Nabiyev H., Sayfullayev S.N. Iqtisodiy statistika. Darslik. – T., 2011-yil. – 300 bet.
3. Потаповой Е.Г., Потеева П.М., Шклярчук М.С. Стратегия цифровой трансформации. – М.: РАНХиГС, 2021.– 184 с.
4. Нормурзаев У. (2021). Пути эффективного использования налоговых льгот для поддержки предпринимателей. Экономика и инновационные технологии, (4), 355–362. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11954